

Markaziy Osiyodagi hamkorlar

NATO Markaziy Osiyodagi hamkor-davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashda davom etmoqda. Bu NATOning strategik muhim mintaqalar bilan tashqi aloqalarni rivojlantirish siyosati doirasida amalga oshirilmoqda. Ularning xavfsizligi va barqarorligi umumiy yevroatlantika xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq. Ushbu besh davlatning har biri, Shimoliy atlantika ittifoqida faol ishtirok etayotgan Afg‘onistonning keyingi rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etish potensialiga ega.


NATOning, 2010 y. noyabrda Lissabon sammitida qabul qilgan yangi strategik konsepsiyasida bayon etilishicha, yevroatlantika hududi havfsizligini mustahkamlashda butun dunyo mamlakatlari va tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari orqali ancha muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Lissabonda hamkor davlatlar bilan muloqot va hamkorlik yanada inklyuziv, moslashuvchan va strategik yo‘naltirilgan bo‘lishi uchun NATOning hamkorlik siyosatini isloh etish bo‘yicha maqsadli ishlar boshlab yuborilgan. Yangi siyosat 2011 yilning aprelida Berlin shahrida tashqi ishlar vazirligi yig‘ilishida tasdiqlangan.

NATO sherikchilik tuzilmasi va hamkorlik dasturi xavfsizlik masalalari bo‘yicha muzokaralar olib borish uchun har taraflama doiralarni taqdim etish, shuningdek, NATOga a‘zo davlatlar va boshqa hamkor mamlakatlar bilan katta spektr yo‘nalishi bo‘yicha ikki tomonlama amaliy hamkorlik o‘rnatish imkonini beradi. Bu shaffoflikni ta‘minlashga, o‘zaro ishonchni mustahkamlashga va xavfsizlik bo‘yicha umumiy muammolarni hal etishga yordam beradi.

Markaziy Osiyodagi beshta davlat ilk davrdan Shimoliy atlantika hamkorlik Kengashida ishtirok etishni boshlaganlar. Ushbu forumga, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi jarlikni yengib o‘tish va Varshava shartnomasiga kirgan sobiq davlatlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish yo‘lidagi ilk qadam sifatida, muzokara olib borish uchun 1991 yilning dekabr oyida Shimoliy atlantika ittifoqi tomonidan asos solingan. Keyinroq, 1997 yilda, ushbu tashkilot o‘rniga yevroatlantika hamkorlik



Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambaev va NATO Bosh kotibi Anders Fog Rasmussen mintaqaviy barqarorlik va keyingi hamkorlik masalalari muhokama etilgan ikki tomonlama uchrashuvdan so‘ng, 2013 y. 17 sentyabrda NATO shtab-kvartirasida qo‘shma matbuot anjumani o‘tkazishdi.

	p2	Umumiy mintaqaviy xavfsizlikka da‘vat
	p5	«Tinchlik uchun hamkorlik»: hamkorlikning muvofiqlashgan usuli
	p7	Hamkorlikning ahamiyati
	p7	Ko‘ptomonli o‘lchov
	p8-14	Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakil

2004 yilning iyunida Istambuldagi Sammitda NATOga a'zo davlatlar Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakil tayinlashga qaror qildilar. Birinchi bo'lib ushbu majburiyat Robert Simmonsga yuklatildi, hozirda ushbu mas'uliyatli vazifa NATOning sobiq matbuot kotibi Djeyms Appaturaga yuklatilgan. Uning vazifasi, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va hamkorlarga hamkorlik instrumentlaridan optimal foydalanishga ko'maklashish maqsadida mintaqaviy rahbarlar bilan yuqori darajada amaliy aloqalarni o'rnatib turishdan iborat.



U mintaqadagi rasmiy shaxslar, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa va Yevropa Ittifoqida xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti kabi boshqa tashkilotlardagi hamkasabalar bilan chambarchas aloqada bo'ladi. Shunga ko'ra, tashkilotning doimiy ishi va aloqasini ta'minlash o'zaro bir butunlikka asoslangan holda amalga oshiriladi. Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakilga aloqa va o'zaro faoliyat bo'yicha har bir mintaqaga uchun ikkita xodim yordam beradi.

Kengashi tashkil etildi. Beshta davlatdan to'rttasi "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatdan foydalangan holda, ushbu yirik ikki tomonlama amaliy hamkorlik loyihasiga 1994 yilda tashkil etilgach a'zo bo'ldilar (Tojikiston esa, keyinroq 2002 yili qo'shildi). 2004 yili Istambuldagi sammitda NATOning peshqadam davlatlari tomonidan Markaziy Osiyo va Kavkaz bilan hamkorlik Shimoliy atlantika ittifoqining muhim masalasi etib belgilandi.

Markaziy Osiyodagi har bir davlatning NATO bilan munosabati turlicha rivojlandi, chunki har bir hamkor davlat qanday va qaysi sohada hamkorlikni o'rnatish bo'yicha mustaqil tanlash huquqiga ega. Shimoliy atlantika Kengashi bilan hamkorlik o'rnatish tashqari Markaziy Osiyodagi hamkor davlatlar xavfsizlik bo'yicha boshqa hududiy tashkilotlarda ham ishtirok etadilar. NATO ularning Shimoliy atlantika kengashi bilan hamkorligi va boshqa tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga intilishlarida hech qanday ziddiyatni ko'rmaydi.

Umumiy mintaqaviy xavfsizlikka da'vat

Mintaqa bo'ylab o'tgan Buyuk ipak yo'li Yevropa va Osiyo o'rtasida mahsulot, bilim va g'oyalar almashinuviga sharoit yaratgan, shuning uchun Markaziy Osiyoning tarixiy mintaqasi favqulotda muhim hisoblangan. Bugungi kunda ham u huddi shunday mavqeyga ega bo'lmoqda.

Xavfsizlikning zamonaviy sharoitida NATO davlatlari va ularning Markaziy Osiyodagi hamkorlari oldida umumiy hal qiluvchi muammolar turibdi. Terrorizm, diniy ekstremizm, etnik ziddiyatlar, shakllanmagan davlatlar, uyushgan jinoyatchilik, ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishi va narkotiklarning noqonuniy aylanmasi chegara bilmaydi va ular bilan faqatgina o'zaro kelishgan holda xalqaro harakatlar orqali kurashish mumkin.

Agar mintaqaga kengroq nazar solsak, Afg'onistondagi sharoitning rivojlanishi bilvosita yoki bevosita Markaziy Osiyo xavfsizligiga va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi va aksincha. NATOning mintaqadagi ishtiroki 2003 y. tashkilotning Afg'onistondagi xavfsizlikka ta'sir ko'rsatish uchun Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar (ISAF) xalqaro kuchlar boshqaruvini o'z zimmasiga olish bilan oshdi. Aynan mana shuning uchun NATO o'zining Markaziy Osiyo hamkorlarini Afg'onistonda va umuman mintaqadagi holatni rivojlantirish, shuningdek 2014 yildan keyingi NATO missiyasi bo'yicha siyosiy muloqotga chorlamoqda. Afg'onistondagi etnik xilma-xillik shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyodagi aksariyat davlatlar muhim mahalliy tashkilotlar va davlat arboblari bilan aloqaga eglilklari Afg'onistonning barqarorlashuvi va tiklanishida ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari ham Afg'onistondagi holatning barqarorlashuvidan manfaatdorarlar, chunki ular o'z mamlakatlariga beqarorlik tarqalishi xavfini bartaraf etish va Afg'onistondan kirib kelayotgan narkotrafik xatari bilan kurashish istagidalar.

Afg‘oniston masalasida xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik va mintaqaviy hamkorlikning muhimligi

Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘onistonda o‘tkazilayotgan NATO boshchiligida ISAF operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlamodalar. Qo‘llab-quvvatlash deganda o‘z hududidan uchib o‘tish va NATOning alohida davlatlari uchun harbiy bazalardan foydalanish imkonini berish tushiniladi. Bundan tashqari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston (Belorusiya, Rossiya va Ukraina bilan bir qatorda) uchmaydigan yuklarning Afg‘onistonga olib borish va qaytarishni amalga oshirish uchun temir yo‘l va (yoki) avtomobil yo‘llari tizimini taqdim etadilar. Ushbu Shimoliy yo‘nalish koalitsiyasining harbiylarini ta‘minlash, shuningdek, Markaziy Osiyodagi hamkorlarga ushbu transport tarmoqlarini, Afg‘oniston va Markaziy Osiyo davlatlarini o‘zaro bog‘lovchi, shuningdek, mintaqani Yevropa bilan bog‘lovchi, uzoq muddatli tijorat arteriyasiga aylantirish imkonini beradi. Mintaqaviy temir yo‘llarni keyingi rivoji mintaqaning hali ham dunyoning iqtisodiy integrirlashgan hududi bo‘lib borishida hamda transport, axborot-kommunikatsiya va energetik infratuzilmalari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan “Yangi ipak yo‘li” konsepsiyasini joriy etishda ahamiyatli hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlarini Afg‘onistondagi barqarorlik yo‘lida foydalanish – Markaziy Osiyo uchun yana bir vazifa. NATOning hisoblashicha, Istanbul jarayoni/ “Osiyo Yuragi” hamkorlikni amalga oshirish yo‘lida qimmatli hisoblanadi. NATO ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda, shuningdek, amaliyotda ofat va falokatlar oqibatini bartaraf etish bo‘yicha ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ikki tomonlama darajada Markaziy Osiyodagi NATO hamkorlari Afg‘onistonning barqarorlashuvi va rivojiga o‘z xissalarini qo‘shmoqdalar.

Qozog‘iston o‘zida investitsiya, qishloq xo‘jaligiga yordam, maktab, shifoxona va temir yo‘l qurilishlarini qamrab olgan, shuningdek, afg‘on talabalarini Qozog‘istonda ta‘lim olishlari uchun stipendiyalarini joriy etuvchi himmatli ko‘magini Afg‘oniston uchun taqdim etdi. Tojikiston ikki davlat chegarasidan o‘tuvchi Panj ko‘li orqali odamlar va yuklarni o‘tishini ta‘minlashga ahamiyat berayapti. Tojikiston hukumati Aga Xan rivojlantirish tashkiloti va Afg‘oniston hukumati bilan birgalikda bir qator ko‘priklar qurilishini yakunlash bo‘yicha ishlarni joriy etdi, qo‘shimcha ko‘priklar miqdori kelajakda qurilishi belgilab olindi. Turkmaniston subsidiyalari energiyani Afg‘onistonga yetkazib beradi hamda TAPI gaz quvirlarini o‘tkazish va Turkmaniston, Afg‘oniston va Tojikistonni bog‘lab turuvchi temir yo‘l loyihalarida ishtirok etmoqda. O‘zbekistonlik mutaxassislar Afg‘onistonda infratuzilmani rivojlantirish borasida qator loyihalarni amalga oshirdilar, jumladan, shimoliy hududlarni poytaxt bilan bog‘lab turuvchi o‘nlab ko‘priklarni tiklashda, shuningdek, Afg‘onistonda Hayraton bilan Mozori Sharifni bog‘lab turuvchi ilk temir yo‘l qurilishida va Qobulni elektroenergiya bilan ta‘minlashda ko‘maklashdilar.

NATO ISAF missiyasi

Markaziy Osiyodagi xavfsizlik sezilarli darajada Afg‘onistondagi xavfsizlik bilan bog‘liq. Afg‘onistondagi holatning rivojlaniishi bevosita yoki bilvosita mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikka ta‘sir ko‘rsatadi. Afg‘oniston yana terroristlar va terrorizmning boshpanasi bo‘lib qolmaslik uchun NATO Afg‘on milliy xavfsizlik kuchlarining (AMXX) ishonchini mustahkamlash va imkoniyatlar yaratishi maqsadida investitsiya kiritishda davom etmoqda. Yaxshi tayyorlangan va kurasha oluvchi AMXX qo‘shni davlatlarga xavf solish ehtimolini kamaytirish bilan birga mintaqaning umumiy xavfsizligini ta‘minlashga o‘z xissalarini qo‘shadi. AMXX yaxshi natijalarga erishmoqda: ular o‘tkazayotgan samarali operatsiyalar natijasida Afg‘onistondagi umumiy xavfsizlik sharoiti yaxshilanishda davom etmoqda.

ISAF 2014 yilning oxirigacha BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyusiyasiga muvofiq Afg‘oniston hukumati xavfsizligini ta‘minlashga ko‘maklashishda davom etmoqda. AMXX 2014 yilning oxirigacha mas‘uliyatni to‘laqonli ravishda o‘z zimmlariga olishlari uchun xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarni tadrijiy va jadval asosida topshirish muvoffaqiyatli amalga oshmoqda. NATO 2014 yildan so‘ng ham ijobiy ma‘noda rivojlaniishda barqaror davom etishi uchun afg‘on kuchlariga ko‘maklashish maqsadida o‘z rolini o‘ynash majburiyatini oldi.



© NATO

Qozg'iston Prezidenti Nursultan Nazarbaev va NATO Bosh kotibi NATO shtab-kvartirasida 2010 yil 25 oktyabrda hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama munozaradan so'ng, jumladan mudofaa va Afg'onistonda NATO boshchiligidagi operatsiyalarni qo'llab-quvvatlash sohasida OAVlar bilan muloqot qilmoqdalar.



© NATO

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va NATO Bosh kotibi, 2011 yil 24 yanvarda Afg'onistonga yoram ko'rsatishni muhokama etish hamda Davlat va NATO o'rtasida ikki tomonlama sherikchilik va hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirishni aniqlashtirish uchun uchrashuv o'tkazmoqdalar.

NATO, bunday harakatlarning samarasi, agar ular ko'p tomonlama asosda tashkil etilsa yana ham ortib boradi, deb hisoblaydi, va shuning uchun Markaziy Osiyodagi barcha hamkorlarni "Osiyo Yuragi" jrayonida to'la ma'noda ishtirok etishga chorlaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Afg'onistonning geografik yaqinligi, shuningdek, diniy ekstremizm bilan bog'liq ichki muammolar ushbu mamlakatlarda terrorizm xatariga qarshi optimal yondashish maqsadida NATO davlatlari bilan hamkorlikda ishlashga bo'lgan qiziqish ortdi. Markaziy Osiyodagi hamkor-davlatlar terrorizmga qarshi kurashishda, 2001 y. 11 sentyabrda, AQShdagi terroristik aktdan so'ng SEAP tomonidan ishlab chiqilgan terrorizm bilan kurashish bo'yicha Harakat rejasidagi ishtiroklari orqali o'z xissalarini qo'shmoqdalar. Ushbu sohadagi hamkorlik o'zida axborot almashinuvini, terrorizmga qarshi kurashish uchun mahalliy kuchlar imkoniyatlarini mustahkamlashga qaratilgan o'quv tadbirlari va mashg'ulotlarda ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ehtimoliy terroristik tajovuz oqibatlarini bartaraf etishda tayyorgarlikni yaxshilash ham muhim ahamiyat kasb etadi. NATO Markaziy Osiyodagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global kontrterroristik strategiyani amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi harakat rejasi doirasida mintaqaviy shijoatni qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. Shuni ta'kidlash muhimki, Markaziy Osiyo davlatlari oldida 2014 yildan so'ng hali ham ekstrimizm va terrorizm bilan bog'liq xavf-xatarlar turgan bir paytda ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, oqilona davlat boshqaruvi, demokratiya va inson huquqlari bilan bog'liq muhim bo'lgan ichki muammolarni hal etishlari zarur. NATO Markaziy Osiyodagi o'z hamkorlariga, boshqa ko'pgina davlatlarda qilinganidek, demokratik, xavfsizlik bo'yicha hisobdorlik institutlarini qurishda amaliy yordam ko'rsatishga tayyor.

«Tinchlik yo'lida hamkorlik»: hamkorlikning muvofiqlashgan usuli

2014 yilda o'zining yigirma yilligini nishonlayotgan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" (TYH) dasturidan maqsad, - bu alohida hamkor davlat va NATO bilan o'zaro o'rnatiladigan hamkorlik munosabati. Hamkorlik davlatlarning intilishi, ehtiyoji va qobiliyatiga muvofiq moslashadi va hamkor davlat hukumati bilan birgalikda amalga oshiriladi. Hamkorlar katta ko'lamdagi tadbirlar ro'yxatidan o'z tanlovlarini amalga oshiradilar va "Hamkorlik va sherikchilikning individual dasturi" (HShID) nomi ostida ikki yillik hamkorlik dasturini tuzadilar.

Taklif etilayotgan tadbirlar, harbiy islohot, mudofaa siyosati va rejalashtirish, harbiy-fuqarolik munosabatlar, o'quv-ta'lim ishlari, harbiy hamkorlik va mashg'ulotlar, fuqarolarni favqulotda holatga tayyorliklari, shuningdek, ilmiy sohadagi hamkorlik kabi NATO faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi.

NATO va Markaziy Osiyoda hamkor davlat o'rtasidagi individual hamkorlik dasturi ularning ehtiyoji va manfaatlariga muvofiq turlicha rivojlanadi.

Qozog'iston – mintaqadagi ancha faol hamkor – hamkorlik tadbirlarida to'la spektrda ishtirok etadi va 2006 yilda NATO bilan birgalikda "Hamkorlik va sherikchilikning individual dasturi"ni (HShID) ishlab chiqqan. Hamkorlikning ushbu yangi mexanizmi 2002 yilda Parij sammitidan so'ng NATO davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan hamda u siyosiy erkinlikka ega bo'lib, NATO bilan munosabatlarni chuqurlashtirish imkoniga ega hamkor davlatlar uchun mo'ljallangan. Ikki yillik davrda amal qiluvchi HShID, mamlakatni isloh etish vazifalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan harakat rejasiga ega. Shimoliy atlantika alyansi Qozog'iston bilan o'zaro harakat vositalari orqali hamkorlikning turli mexanizmlarini birlashtiradi. Qozog'iston hukumatining kelishuviga ko'ra, islohot rejalari, ustunlik va tegishli vaqt muddatlarni rejalashtirgan. NATO mamlakat spetsifikasini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan maslahatlar berishga rozi bo'ladi, alohida a'zo-davlatlar esa, mamlakatda ichki islohotlarni o'tkazish bo'yicha ishlarni optimal qo'llab-quvvatlash uchun ikki tomonlama yordamni muvofiqlashtirishga harakat qiladilar. Qozog'iston va NATO uchta HShIDga kelishib oldilar, 2014 yilning boshida esa, to'rtinchi HShID haqida muzokara olib borildi. Shu bilan birga Qozog'iston yana bir bor NATO bilan hamkorlikka sodiq ekanini tasdiqladi.

Qirg'iziston hamkorlik faoliyatining keyingi rivojiga katta qiziqish uyg'otmoqda va 2007 yilda TYH rejalashtirish va tahlil qilish Jarayonida ishtirok etishga rozilik bildirdi. 2010 yildagi siyosiy larzalar oqibatida yangi hukumat va Qirg'iziston parlamenti yana bir bor NATO davlatlari bilan munosabatlarni tasdiqladi. Qirg'iziston katta mamnuniyat bilan hozirda o'tkazilayotgan ijtimoiy moslashuv va istefoga chiqqan zaxiradagi harbiy xizmatchilarni qayta



Tojikiston Prezidenti Emomali Raxmon NATO Bosh kotibi bilan, 2013 yil 10 aprelda ikki tomonlama hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va narkotiklarga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida uchrashdi.

tayyorlash dasturini qabul qildi, shuningdek, o'q otar qurollar, yengil qurol-aslahalar va o'q dorilarni saqlash ob'ektlarini takomillashtirish bo'yicha NATO-TUHning maqsadli jamg'armasi loyihasini joriy etishga so'rovnoma berish bilan birga Bishkekda NATO idorasi ochishga tayyorligini bildirdi.

Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng oxirgi bo'lib, 2002 yilda TYH dasturiga a'zo bo'ldi. Shundan buyon u hamkorlik faoliyatini kengaytirib, ofat va falokatlarga tayyorgarlik (fuqarolarni favqulotda rejalashtirish) va NATO-TYHning maqsadli jamg'armasi mexanizmi orqali amalga oshirilyotgan demilitarizatsiya bo'yicha loyihalarga o'z qiziqishini bildirdi. Yaqinda bo'lib o'tgan Tojikiston va NATO o'rtasida munozaralar jarayonida davlat chegaralari xavfsizligi va ijtimoiy diplomatiya sohalarida yanada yaqin munosabatlar uchun imkoniyatlar o'rganildi.

Turmanistonning NATO bilan hamkorligi Markaziy Osiyodagi boshqa hamkorlarga nisbatan ancha chegaralangan bo'lib, munosabatlar faqat fuqarolik sohasini qamrab oladi. Biroq, ushbu davlat tomonidan oxirgi yillarda amalga oshirilgan harakatlar hamda qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va o'zaro aloqalarni kengaytirishga bo'lgan intilishlar NATO bilan hamkorlikni chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston bilan hamkorlik hamkorlikning ilk yillarida sezilarli darajada rivojlandi. Biroq, jarayon, NATO davlatlari mustaqil xalqaro tekshiruv o'tkazishga qilgan da'vatlari natijasida, 2005 yilning mayida Andijondagi voqyealar bilan bog'liq ziddiyatdan so'ng jiddiy ravishda susaydi. Oxirgi bir necha yil davomida siyosiy munosabat va amaliy hamkorlik rivojlana boshlandi. Toshkent Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimi Byurosini joylashishiga rozilik bildirdi hamda harbiy ta'limdagi islohot va ijtimoiy diplomatiya kabi bir qator yo'nalishlar bo'yicha alyans bilan munosabatni oshirmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimi

Shimoliy atlanika ittifoqi bilan hamkorlik dasturida belgilangan maqsadlarni qo'llab-quvvatlashda NATO bilan hamkorlik vositalaridan maksimal foydalanishni ta'minlash maqsadida Munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimi Markaziy Osiyo mamlakatlarining davlat organlari bilan bevosita ish olib boradi., munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimining uncha katta bo'lmagan shtati, NATOning joylardagi diplomatik vakili vazifasini hamda mudofaani rejalashtirish va tahlil qilish, NATO operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash, harbiy ta'lim va tayyorgarlik, fuqarolarni favqulotda rejalashtirish, ekologik va ilmiy hamkorlik, shuningdek, ijtimoiy diplomatiya kabi turli yo'nalishlar bo'yicha Markaziy Osiyodagi hamkorlar bilan NATOning amaliy munosabatlarini muvofiqlashtirish ishlarini bajaradi. Munosabat va aloqa bo'yicha xodim mintaqadagi boshqa xalqaro sub'ektlar, shuningdek, NATO davlatlarining elchixonalari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti, yevropa hamkorlik va xavfsizlik Tashkiloti, yevropa ittifoqi va Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi missiyalarini muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Qozog'iston Markaziy Osiyoda munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimini qabul qilgan birinchi hamkorlardan bo'ldi. 2013 yilning martidan munosabat va aloqa bo'yicha NATOning amaldagi xodimi O'zbekistonda joylashgan bo'lib, uning Byurosi diplomatik vakolatxona sifatida akkreditatsiyadan o'tgan



© NATO

Hamkorlikning ahamiyati

Sherikchilik faqatgina amaliy hamkorlik bilan chegaralanmaydi. Gap qadriyatlar haqida ham bormoqda. Hamkor davlatlar “Tinchlik yo’lida hamkorlik” dasturiga qo’shilishlari bilan ular TYH Umumiy hujjatni imzolaydilar. Shu bilan hamkorlar xalqaro huquqlarga, BMT Nizomiga, inson huquqlari bo’yicha Ommaviy deklaratsiyaga, Xelsinsk xulosaviy aktiga, qurolsizlantirish va qurol-yaroq ustidan nazorat bo’yicha xalqaro kelishuvga; xavfni to’xtatish yoki boshqa davlatga nisbatan kuch ishlatish; mavjud chegaralarga rioya qilish; shuningdek, kelishmovchiliklarni tinch yo’l bilan hal etishga majbur bo’ladilar.

Umumiy hujjatda, shuningdek, NATOga a’zo davlatlar, hududiy butunligiga, siyosiy mustaqilligiga yoki xavfsizligiga biron xavf bor, deb hisoblangan har qanday hamkor davlat bilan maslahat olib borish majburiyatlari ham birlashtirilgan. Ushbu majburiyatlar va TYH dasturidan maqsad umumiy olganda – ishonch va transparentlikni mustahkamlash, dunyoga bo’ladigan xatarni pasaytirish, ittifoqdosh va boshqa hamkor davlatlar bilan xavfsizlik sohasida mustahkam aloqalarni o’rnatishdan iborat. HSHID kabi boshqa vositalar hamkor davlatlar va NATO o’rtasida siyosiy maslahat uchun muhim imkoniyatlar eshigini ochadi. Davlat rahbarlari va vazirlar, NATOda qaror qabul qiluvchi bosh organ bo’lgan Bosh kotib va Shimoliy atlantika Kengashi bilan uchrashish maqsadida NATO shtab-kvartirasiga muntazam tashrif buyuradilar.

Ko’ptomonli o’lchov

Ikkitomonlama hamkorlikdan tashqari, yevroatlantik Hamkorlikda muhim ko’ptomonlama o’lchov ham mavjud. Uning tajallisi Yevroatlantik Hamkorlik Kengashi (YAHK) bo’lib, u suhbatlashish va maslahatlashuv uchun forumda 28 ta ittifoqchi va 22 ta sherik-davlatni jamlaydi. YASHK majlislari har oyda elchilar darajasida, muntazam ravishda – tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari va bosh shtablar boshliqlari darajasida, shuningdek, vaqti-vaqti bilan oliy darajada o’tkaziladi.

YAHK a’zolari muntazam ravishda keng doiradagi xavfsizlik masalalari, jumladan, birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan NATO a’zo-davlatlari va sherik-davlatlaridan tinchlikparvar kontingentlari kiritilgan Kosovo va Afg’onistondagi xavfsizlik sharoitlari o’zgarishi yuzasidan fikr almashadilar. Bundan tashqari, YAHK terrorizmga qarshi kurash, chegaralar xavfsizligi, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurash va ommaviy qirg’in quroli, o’q otar qurolva yengil qurollanishning tarqashi bilan bog’liq boshqa masalalarga oid sohalar bo’yicha amaliy hamkorlikka ko’maklashish va muvofiqlashtirish, shuningdek bilim va ko’nikmalar bilan almashish bo’yicha tashabbuslarni ilgari surdi.



Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedov va NATO sobiq Bosh kotibi Yaap de Xoop Sxeffer 2007 yil 7 noyabrda NATO shtab-kvartirasida ikki tomonlama hamkorlikni muhokama etish uchun uchrashdilar.



General Martin Dempsi (AQSh harbiy kuchlari Shtab boshlig'i) General-mayor Viktor Maxmudov (o'sha paytdagi O'zbekiston harbiy kuchlari Shtab boshlig'i) va Podpolkovnik Dilmurod Isakulov (O'zbekistonning NATOdagi harbiy vakili) bilan 2013 yil yanvarida NATO shtab-kvartirasida 168-chi Shtab boshliqlari uchrashuvi vaqtida suhbatlashmoqdalar.

NATOning Afg‘onistondagi “Qat’iy qo‘llab- quvvatlash” missiyasi

NATOning Afg‘onistondagi yangi missiyasi «Qat’iy qo‘llab-quvvatlash» nomini oldi. Bu HShDning boshqa nomli missiyasi emas, aksincha, ko‘lami bo‘yicha ancha kichik bo‘lgan missiya hisoblanadi. Uning yagona maqsadi afg‘on kuchlariga ko‘maklashish, tayyorlash va maslahat berishdan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari NATO Afg‘oniston milliy xavfsizlik kuchlariga moddiy yordam berishda ko‘maklashishni o‘z zimmasiga oldi; va NATO davlatlari «Uzoq muddatli hamkorlik» tashabbusi orqali Afg‘oniston bilan siyosiy munosabatni chuqurlashtirishga kelishib oladilar.

Ko‘pgina davlatlar – a‘zo davlatlar kabi, NATOga hamkor davlatlar ham – yangi missiyani qo‘llab-quvvatlash taklifini berdilar. NATO Afg‘onistondagi va umuman mintaqadagi xavfsizlikka sodiqligini saqlab qoladi, va bu sodiqlik eng yuqori darajada tasdiqlandi.

2013 yilning iyunida NATO mudofaa vazirlari missiyaning asosiy tamoyillarini kelishib olishdi. U chegaralangan munosabatga asoslangan bo‘lib, beshta tumanda amalga oshiriladi – Qobulda, mamlakatning shimolida, g‘arbida, janubi va sharqida – va harbiy idoralar kabi milliy institutlarga, shuningdek, armiya korpuslari va politsiya boshqaruvi tayyorlash darajasida yo‘naltiriladi. «Qat’iy qo‘llab-quvvatlash» missiyasini rejalashtirish 2014 yilda ham davom etadi.

Maslahatlashuv va hamkorlikka ko‘maklashish maqsadlarida beshchala Markaziy osiyolik sheriklar NATOning Bryussel (Belgiya)dagi shtab-kvartirasida diplomatik vakolatxonalar ta‘sis etdilar. Qozog‘iston va Qirg‘iziston Mons (Belgiya) shahrida joylashgan, NATOning yevropadagi THK Oliy bosh qo‘mondoni shtabida joylashgan, Amaliyotlar bo‘yicha NATO qo‘mondonligi Harbiy Hamkorlik boshqaruvida vakilga egalar, bu esa mamlakatlarning o‘quv tadbirlarida va o‘quv-mashg‘ulotlarda qatnashishlariga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Qozog‘iston va O‘zbekiston Bryusseldagi NATO shtab-kvartiralarida o‘z harbiy vakillariga egalar.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

Transparentlilik va ishonchning mustahkamlanishiga ko‘maklashishdan tashqari, NATOning Markaziy Osiyodagi sheriklari bilan hamkorligining asosiy ustuvorliklari tinchlikparvar amaliyotlarini o‘tkazishda tezkor moslashuvchanlik (ushbu mamlakatlar harbiy kuchlarining NATO ittifoqchilari va boshqa a‘zo-davlatlari harbiy kuchlari bilan birgalikda ishlay olish layoqati)ni oshirish va umumiy xavfsizlikka tahdidlarni yengish uchun amaliy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Bir qator mamlakatlar ixtisoslashtirilgan maslahatlar va mudofaa hamda xavfsizlik sohasida islohotlarni amalga oshirishdagi qo‘llab-quvvatlashlardan ham manfaatdordirlar. Hamkorlikning boshqa muhim sohalari – ofatlarga tayyorlik va ilm-fan hamda ekologiya sohasidagi hamkorlik. Shu bilan birga, NATOning roli va Shimoliy atlantika ittifoqi bilan hamkorlik qilish foydasi to‘g‘risidagi xabardorlikni oshirishga qaratilgan jamoatchilik diplomatiyasi sohasida ham tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohot

Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohot, avvalgidek, NATOning sherik-davlatlar bilan hamkorligida tobora katta ahamiyat kasb etayotgan soha bo‘lib kelmoqda. NATO va alohida a‘zo-davlatlar bu sohada katta bilim va ko‘nikmalar jamlagan bo‘lib, ulardan sheriklar foydalanishi mumkin.

Eng muhim vazifalardan biri – sherik-davlatlar kuchlarining NATO rahbarligi ostidagi tinchlikparvarlik amaliyotlari va inqirozni bartaraf etish bo‘yicha amaliyotlarni amalga oshirish layoqatini oshirishdir. Ikkitomonlama dasturlar va ko‘pmillatli qo‘uv mashg‘ulotlari sherik-davlatlarning NATO qo‘shinlari bilan hamkorlikda harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Umumiy tilga ega bo‘lish va tezkor moslashuvchanlikni yaratish standart taomillarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohot borasidagi sherik-davlatlar bilan hamkorlikning yana bir ustuvor yo‘nalishi – mudofaa institutlarini samarali va amaliy boshqaruvga ko‘maklashish va qurolli kuchlar ustidan fuqarolik va demokratik nazoratdir.

Boshqa ko'plab sherik-davlatlarda qurolli kuchlar sohasidagi islohot va o'zgarishlar mavjud xavfsizlik tuzilmalarini qisqartirgan yoki moslashtirgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda biroz boshqacha holat yuzaga kelgan.

Mintaqadagi ko'plab mamlakatlar zobitlarning yangi toifasini yaratishlariga to'g'ri keldi, ularni yig'ish va o'qitish zarur edi. Bundan tashqari, mudofaa vazirliklarining yangi tuzilmalari parlament va fuqaro nazoratiga, mudofaa sohasida resurslarni shaffof rejalashtirish va taqsimlashga ko'maklashuvchi islohotlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Muayyan va texnik islohotlarda sherik-davlatlarga ko'mak beruvchi muhim vosita TYSh rejalashtirish va analiz qilish jarayoni (PARP) sanaladi. U NATO rahbarligi ostida o'tkazilayotgan tinchlikni saqlab turish bo'yicha amaliyotlarga ajratilishi mumkin bo'lgan kuch va mablag'larni aniqlash, rivojlantirish va baholashga yordam beradi. PARP, shuningdek, sherik-davlatlar tomonidan samarali, iqtisodiy imkoniyatli va barqaror qurolli kuchlarni qurish uchun o'lchamlarni belgilaga ko'mak beradi, shuningdek harbiy islohot o'tkazish bo'yicha yanada keng sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. PARP doirasida har bir ishtirokch-davlat bilan Hamkorlik maqsadlari kelishib olinadi va rivojlanish har yili batafsil tahlil qilinadi. Markaziy Osiyodan bir necha sheriklar PARPda qatnashishga qaror qildilar. Qozog'iston unda 2002 yildan buyon qatnashadi; O'zbekiston va Qirg'iziston ushbu jarayonga tegishli 2002 y. va 2007 y.da qo'shildilar. Biroq, keyingi ikki mamlakatning ishtiroki bir necha yildan buyon to'xtatib qo'yilgan. Tojikiston ham PARPga dastlabki qiziqishlarni bildirgan.

Qozog'iston hukumatining NATO kuchlari bilan tezkor moslashuvchanligini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlari Qozog'iston bataloni (KAZBAT), keyin Qozog'iston brigadasi (KAZBRIG) yaratilishiga sabab bo'ldi. Ularga NATO mamlakatlari yordam berdilar. 2006 yildan boshlab Qozog'iston NATO mamlakatlari va mintaqaviy sheriklar bilan birga o'z hududida har yilgi "Dasht burguti" mashg'ulotlarini o'tkazadi. Bu mashg'ulotlar KAZBAT va Shimoliy atlantika ittifoqi kuchlarining tezkor moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. 2012 va 2013 yillardagi mashg'ulotlar Qozog'iston tomonidan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" ruhida o'tkazildi.

Shuningdek, Qozog'iston alohida bo'linmalarining (masalan, KAZBAT) NATO bilan to'liq tezkor moslashuvchanligini ta'minlash maqsadi haqida e'lon qildi. Tezkor salohiyatlar – kuchlarni jamlash konsepsiyasiga muvofiq, NATO standartlar, tayyorgarlik, baholash va bo'linmalarni sertifikatlashdan o'tkazishni taqdim etadi. Natijada sherik-davlatlar o'ta zamonaviy, o'yoluvchan va tezkor moslashuvchan kuchlarga ega bo'ladilar, ular kelgusida turli ko'rinishdagi, xususan tinchlikparvar amaliyotlar va BM Tning tinchlikni qo'llab-quvvatlash amaliyotlarida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, kelgusida ularni NATO bilan inqirozni bartaraf etish va insonparvarlik amaliyotlarida qo'llanilishi imkoniyatlari ko'rib chiqilishi mumkin.

Qirg'iziston – istefoga chiqqan zaxiradagi harbiy xizmatchilarni qayta tayyorlash va ijtimoiy moslashuvi.

NATO Qirg'izistonga istefoga chiqqan zaxiradagi harbiy xizmatchilarni qayta tayyorlash va ijtimoiy moslashuvi sohasida, ularga ingliz tili, menejment va axborot texnologiyalarini o'qitish bo'yicha kurslar tashkil etish bilan yordam ko'rsatmoqda. Mintaqada dasturni yoyish 2012 yilda yuz berdi; hozirda kurslar Bishkek va Oshda faoliyat yuritayapti. Oshdagi yangi ob'ekt ham istefoga chiqqan zaxiradagi chegarachilar uchun ta'lim olishni taklif etmoqda. 2013 yilning oxirida dastur doirasida tahminan 450ta sobiq harbiy xizmatchilar qayta tayyorlashdan o'tdilar. 2014 yilda NATO deyarli 140 sobiq harbiy xizmatchilar uchun qayta tayyorlov kurslarini taklif etishni rejalashtirgan.



Qozog'iston qurolli kuchlari askarlari "Cho'l burguti 2013" mashg'ulotlarida ishtirok etmoqdalar. 2013 yilning dekabrda Qozog'iston o'zining 20ta ofitserini BM Tning Afrika va Gaitidagi tinchlik o'rnatish missiyasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishiga bildirdi.



Qozog'istonda tinchlik o'rnatish jarayonlaridagi mashg'ulotlar va KAZBAT imkoniyatlariga yo'naltirilgan "Cho'l burguti 2013" mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Trening 12 davlatdan kelgan 1260 harbiy xizmatchi, kuzatuvchi va boshqa ishtirokchilar uchun o'tkazildi.

Qozog'iston 2007 y.da Harbiy ta'limni chuqurlashtirish dasturi (DEEP) da qatnashishga buyurtma berdi; dastur doirasida Milliy mudofaa universiteti (MMU) ga NATO va G'arb mamlakatlari harbiy o'quv muassasalaridagi ta'limga mos keluvchi o'quv rejalarini ishlab chiqish va pedagogika bo'yicha yordam ko'rsatilmoqda. Hozirda Harbiy ta'limni chuqurlashtirish dasturi MMU o'qituvchilar tarkibini qo'llab-quvvatlashga va Qozog'iston quruqlikdagi kuchlari Harbiy instituti TYSh O'quv markazi (KAZSENT) uchun kurslar ishlab chiqishga qaratilgan.

Hamkorlik o'quv-ta'lim markazlari (RTES) hamjamiyati a'zosi sifatida, Qozog'iston NATO a'zo-davlatlari va sherik-davlatlari salohiyatini yaratishga o'z ulushini qo'shmoqda. KAZSENT rasman RTES sifatida 2010 y.da tan olindi; Finlyandiya Mudofaa kuchlari xalqaro markazi va Shvetsiya Qurolli kuchlari xalqaro o'quv markazi kabi RTES tarmog'i boshqa a'zolari bilan birga o'quv rejalarini tuzish uchun yo'riqchilarni o'qitish yuzasidan almashinuvni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, Qozog'iston mintaqada PARP bo'yicha ishlar tajribasi bilan o'rtoqlashadi, jumladan, ushbu mavzuda mintaqaviy konferensiya tashkil etdi. Bundan tashqari, KAZSENT a'zo-davlatlar va sherik-davlatlar uchun harbiy atamashunoslik bo'yicha har yilgi ingliz tili, bundan tashqari, NATO shtab taomillari bo'yicha kurslarini va Markaziy Osiyo va Afg'oniston tarixi, iqtisodiyoti va madaniyati bo'yicha besh kunlik tanishuv kursini taklif etadi.

O'zbekiston hokimiyati buyurtmasiga ko'ra, 2013 yil dekabrda NATO O'zbekiston bilan DEEP dasturini amalga oshira boshladi. Keyingi uch yil davomida NATO rahbarligidagi ko'pmillatli o'qituvchilar guruhi NATO bilan tanishuv, NATO shtab taomillari, terrorizmga qarshi kurashish va fuqarolik favqulodda rejalashtirish kabi sohalarda to'rtta kursni ishlab chiqishda ko'mak beradi.

Shimoliy atlantika ittifoqi uchun yana bir ustuvorlik sherik-davlatlarga NATO-TYH maqsadli fondlari mexanizmlar vositasida demilitarizatsiya bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda ko'mak ko'rsatishdan iborat. Loyihalarning maqsadi – sherik-davlatlarga ortiqcha yoki eskirgan minalar, o'q-dorilar, o'q otar qurol va yengil qurollanish zaxiralarini xavfsiz yo'q qilishda yordam berishdir. Alohida a'zo-davlatlar va sherik-davlatlarning ixtiyoriy ulushlari hisobidan moliyalashtiriladigan ushbu loyihalar odatda boshqa tegishli tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni nazarda tutadi. Tojikistonda NATO-TYH Maqsadli fondi loyihasi amalga oshirilmoqda. U Buyuk Britaniya rahbarligida o'tmoqda va uning asosiy homiysi sifatida Yaponiya qatnashmoqda; ushbu loyiha doirasida yaroqsiz o'q-dorilarni yo'q qilish amalga oshirilmoqda va chegara tumanlardagi qurol-yaroq va o'q-dorilarni saqlash ob'ektlari nazorati o'tkazilmoqda. 2004 y.da loyiha muvaffaqiyatli natijalarga erishish imkonini berdi, o'shanda mamlakatda qolgan 1200 ta piyodalarga qarshi minalarni qo'y qilish Tojikistonga Piyodalarga qarshi minalarni qo'llash, zaxiralarini yig'ish, ishlab chiqarish va boshqaga berishni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risidagi Ottava konvensiyasida ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishda yordam berdi.

Qirg'izistonda 2009 yilda NATO zaxiraga chiqarilgan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy moslashtirish va qayta tayyorlash dasturini amalga oshira boshladi. O'sha paytdan buyon dastur kengaydi va ham poytaxt Bishkekda, ham mamlakatning kattaligi jihatidan ikkinchi shahri – O'shda amalga oshirilmog'a. Qirg'iziston hokimiyatining so'roviga javoban, Turkiya rahbarligida va Shveysariya ishtirokida NATO-TYH Maqsadli fondining o'q otar qurollar va yengil qurollanish hamda o'q-dorilarni xavfsiz saqlash ob'ektlarini takomillashtirish bo'yicha ehtimoliy yangi loyihasi bo'yicha dastlabki ishlar boshlandi.

Markaziy Osiyoga Afg'onistondan kirib keladigan narkotiklar savdosiga qarshi yordam ko'rsatish

Afg'onistonda dunyodagi opiumning 90 foizi yetishtiriladi, bu esa, xalqar jamoatchilikka jiddiy xavf soladi. Narkotiklar savdosi uyushgan jinoyatchilik va terrorizmni moliyalash bilan bog'liq. Narkotiklarni iste'mol qilish juda katta ijtimoiy muammo va millatlar aro chegara bilmas sog'liqni saqlash muammosi hisoblanadi.

Markaziy Osiyodagi beshta hamkor davlatlar 2005 yil dekabrda ish boshlagan noqonuniy narkotik aylanmasiga qarshi kurashish uslubi orqali huquqni himoya qilish organlari xodimlarini o'qitish bo'yicha Rossiya-NATO loyihasida ishtirok etadilar. Ushbu tashabbus Afg'oniston, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Pokistondagi o'rta qatlam xodimlar bilan, Rossiya va NATO mamlakatlaridan olingan tajriba va bilimlarni umumlashtirilganligini hisobiga olgan holda mahalliy imkoniyatlarni o'stirish va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Narkotik va jinoyat bo'yicha BMT Boshqarmasi (BMT NJB) loyihaning mas'ul ijrochisi sifatida chiqmoqda. Joylarda mobil kurslar o'tkazilayotgan bir paytda Afg'oniston, Markaziy Osiyo davlatlari va Pokiston o'z ofitserlari uchun ta'lim kurslarini Rossiya, Turkiya va AQShda o'tkazdi. 2013 yilda loyiha doirasida noqonuniy narkotik aylanmasiga qarshi kurashning xalqaro o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Ushbu ish Shimoliy Tojikiston va Janubiy Qirg'iziston o'rtasidaga mavjud nazorat-o'tkazish punktlarida chegara hamkorlik idoralari tashkil etish bo'yicha BMT NJB faoliyatini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Rossiya-NATO Kengashi (RNK)ning loyihada ishtirok etuvchi davlatlari Afg'oniston, Markaziy Osiyo davlatlari va Pokiston vakillari bilan hamkorlikda noqonuniy narkotik aylanmasiga qarshi kurashish uslubiga o'rgatish sohasida loyiha davlatlarning talabini qondirishni ta'minlash maqsadida yuqori darajadagi boshqaruv yig'ilishini chaqirmoqda. 2013 yil oxiriga kelib 3000 dan ortiq xodim RNKning ushbu loyihasi doirasida ta'lim oldilar. Loyiha ta'sirida o'qitishning asosiy kurslari keng o'tkazilgandan so'ng noqonuniy narkotik aylanmasiga qarshi kurashish uslubini qonun himoya qiluvchi organ xodimlarini malakali o'qitishga talab tushayotganligi aniqlandi.

Ofat va falokatlarga tayyorgarlik va ularga munosabat bildirish

Tabiiy ofatlar va texnogen falokatlarni bartaraf etishga puxta tayyorlangan mamlakatlar ham qiynaladi. Bunday ofatlarning oqibatlarini ko'p hollarda davlat chegarasini kechib o'tadi va butun mintaqalar xavfsizligi va barqarorligini xavf ostida qo'yadi. Binobarin, ofatlarga samarali tayyorgarlik ko'rish va ularga munosabat bildirish borasidagi hamkorlik (NATOda "fuqarolik favqulodda rejalashtirish" sifatida ma'lum) o'ta muhim va sheriklar faoliyatining uzviy qismi sanaladi. Markaziy Osiyodagi qator sherik-davlatlar NATO bilan falokatlarga tayyorgarlik va ularga munosabat bildirish borasidagi o'z salohiyatini takomillashtirish uchun ish olib boradilar. Bu boradagi ko'plab tadbirlar yevroatlantika tabiiy ofat va falokatlarga munosabat bildirish muvofiqlashtiruvchi markazi (YTOFMBMM) doirasida amalga oshiriladi.

YTOFMBMM 1998 y.da SEAP mamlakatlari orasida tabiiy ofat holatlarida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Masalan, u Qirg'iziston hukumati 2005 yildagi jiddiy suv toshqinlaridan va 2006 y.dagi keng ko'lamdagi vayronagarchiliklarga sabab bo'lgan kuchli qor yog'ishidan keyingi yordam so'rab qilgan murojaatidan keyin ushbu mamlakat janubiy tumanlariga yordam yuborishni muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Markaziy Osiyodagi aksariyat sherik-davlatlar YTOFMBMM o'tkazadigan tadbirlar va mashg'ulotlarda qatnashadi, Qozog'iston esa, tashkilotning NATO shtab-kvartirasidagi tezkor markaziga o'zining vakilini yuborgan. Mashg'ulotlar kuchlar va mablag'larni amalda baholash hamda kelgusida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilab olish uchun qimmatli imkoniyatlarni ochadi. Keyingi yillarda YTOFMBMM yo'nalishi bo'yicha tadbirlarning aksariyat qismi, jumladan qator mashg'ulotlar, sherik-davlatlar tomonidan taklif etildi, tashkil etildi va o'tkazildi. Bu hol sheriklar TYSh faoliyatining eng yirik noharbiy qismi bo'lmish fuqarolik favqulodda rejalashtirish sohasidagi hamkorlikni nechog'li yuqori baholashlariga dalolat qiladi.

Tojikiston – chegara tumanlarda o'q-dorilarni saqlash va ularning xavfsiz utilitatsiyasi bo'yicha maqsadli jamg'arma loyihasi

Tojikistonda o'q-dorilar qator vazirliklar ixtiyoriga berilgan bo'lib, tarixiy sabablarga ko'ra va xavfsizlikni anglash bo'yicha ularning katta qismi butun mamlakat bo'ylab tarqalgan. NATOning maqsadli jamg'armasi Tojikistonning istefoga chiqqan zaxiradagi harbiy xizmatchilaridan olingan portlovchi moddalarni zararsizlantirish bo'yicha guruh ta'minotini amalga oshiradi. Guruh jismoniy xavfsizlikni oshiradi va o'q dorilar zaxirasini boshqarishni takomillashtirib, ularning utilitatsiyasi bo'yicha xizmatlarni, shuningdek, o'q dorilarning jismoniy xavfsizligi va texnikasi bo'yicha mutaxassis maslahatlari taklif etadi.

Davlat organlari va mahalliy jamiyatlar bilan hamkorlik orqali Maqsadli jamg'armaning portlovchi moddalarni zararsizlantirish bo'yicha guruhi ortiqcha va yaroqsiz o'q dorilarni yo'qotishni amalga oshiradi va zarur hollarda foydalanish uchun yaroqli zaxiralarni xavfsiz saqlanadigan joyga o'tkazadi.

Tojikiston hukumatinin roziligi va taklifi bo'yicha Maqsadli jamg'armaning portlovchi moddalarni zararsizlantirish guruhi loyihaning keyingi bosqichida xavfsizlik va muhofaza inspeksiyasini o'tkazish uchun alohida ob'ektlarga tashrif buyuradi. O'tkazilgan inspeksiya to'g'risidagi joylardan tayorlangan hisobot, keyingi muhim harakatlar bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Tojikiston davlat idoralari xodimlari tomonidan o'q dorilar zaxirasini boshqarish va xavfsizlik bo'yicha tayyorgarlik taqdim etiladi.



Ilm-fan va atrof-muhit

Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi olimlar va tadqiqotchilar yigirma yildan ziyod vaqtdan beri NATOning “Tinchlik va xavfsizlik yo‘lida ilm-fan” (TXYI) dasturi doirasida faoliyat yuritmoqdalar. TXYI dasturi NATO a‘zo-davlatlari va sherik-davlatlari xavfsizligini mustahkamlash uchun umumiy qiziqish uyg‘otuvchi masalalar bo‘yicha yaqindan hamkorlik qilishga xizmat qiladi. Xalqaro sa‘y-harakatlarga ko‘maklashib, ayniqsa mintaqaviy ko‘lamda, dastur xavfsizlikka yangi tahdidlarga qarshi turishga, NATO rahbarligidagi amaliyotlarni qo‘llab-quvvatlashga, shuningdek ofatlar va inqirozli vaziyatlarni erta ogohlantirish, prognozlash va oldini olishni rivojlantirishga intiladi.

Hamkorlik olimlar o‘rtasida an‘ana va ilmiy jarayon uchun zaruriyat sanaladi. Tashkil etilayotgan tarmoqlar turli madaniyat va an‘analarga ega hamjamiyatlar o‘rtasida tushunishga erishish va ishonchni mustahkamlash bo‘yicha siyosiy maqsadlarga erishishga ham yordam beradi. TXYI dasturining yana bir vazifasi texnologiyalar almashinuvi va topshirilishiga ko‘maklashishdan iborat, bu sherik-davlatlarga ular uchun aniq birgalikdagi faoliyat doirasidagi ustuvor vazifalarni bajarishda yordam beradi. Bu ko‘p yillik ilmiy-tadqiqot loyihalari, simpoziumlar va o‘quv kurslari vositasida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari va NATO mamlakatlari ekspertlari birgalikda xavfsizlikka oid keng ko‘lamdagi, jumladan terrorizmga qarshi kurashish, ofatlarni prognozlash va tabiiy falokatlardan ogohlantirish, shuningdek ekologik xavfsizlik masalalarini hal etish ustida ish olib bormoqdalar. Masalan, 2012 y. iyun oyida Bishkek (Qirg‘iziston)da malaka oshirish kursi o‘tkazildi, uning doirasida harbiy va fuqaro ekspertlariga terrorizmga qarshi kurashning milliy salohiyatini yaratish bo‘yicha umumiy yondashuv va metodologiya taklif etildi. 2013 y. may oyida Samarqand (O‘zbekiston)dagi seminarida falokatlarini prognozlashtirish, modellashtirish va barqaror rivojlantirish vositasida potensial inqirozlar va mojarolarning oldini olish masalalarikshrib chiqildi. Xulosa o‘rnida chegaralararo suv ifloslanishi (mintaqa aholisi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ynalish) bo‘yicha ko‘p yillik ilmiy-tadqiqot loyahasini qayd etib o‘tish o‘rinli. U hozirda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston ekspertlari ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Jamoatchilik diplomatiyasi

Markaziy Osiyodagi sheriklar bilan jamoatchilik diplomatiyasi sohasidagi hamkorlik Shimoliy atlantika ittifoqi va NATO bilan sheriklikning foydasi to‘g‘risidagi xabardorlikni oshirishga, shuningdek, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi asosiy shaxslarni, fuqarolik jamiyatini jalb etishga qaratilgan. Hozirda manfaatdor sherik-davlatlar bilan birga universitetlar, nodavlat tashkilotlari va Ommaviy Axborot Vositalari ishtirokidagi tarmoqlarni yaratish uchun hamkorlik amalga oshirilmoqda. Mahalliy muassasalar yoki nodavlat tashkilotlari NATO ko‘magida va davlat organlari bilan hamkorlikda seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar kabi turli tadbirlar o‘tkazishmoqda.



“Tinchlik va xavfsizlik yo‘lida ilm-fan” dasturi doirasida tabiiy ofat, inqirozni modellashtirish va barqaror rivojlanishni prognozlashtirish bo‘yicha simpozium ishtirokchilari. Simpozium 2013 yilning mayida, O‘zbekistonda, Samarqand shahrida o‘tkazilgan.



Al-Farobiy nomli Qozog‘iston milliy universiteti talabalari 2013 yilning noyabrida, NATO modellari anjumanidagi ishtiroklari. NATO axborot markazi tomonidan tashkil etilgan tadbir, NATO shtab-kvartirasining xalqaro xodimlari bilan videotelekonferensiya o‘tkazishni o‘z ichiga olgan.

2007 yildan buyon Almati (Qozog'iston)da NATO Resurs va axborot markazi ishlab kelmoqda, u kerakli nashrlar va hujjatlardan foydalanishni yaxshilaydi. Shimoliy atlantika ittifoqi mintaqadagi NATO depozitar kutubxonalari va "NATO multimedia burchaklari" tarmog'ini, jumladan 2014 yilda Toshkent (O'zbekiston)dagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida, kengaytiradi. Ushbu mamlakatlardagi ilmiy xodimlar, davlat xizmatchilari yoki jamoatchilik fiklarini shakllantiruvchi shaxslar muntazam ravishda NATO shtab-kvartirasiga taklif qilinadilar, u yerda ularga Shimoliy Atlantika ittifoqi faoliyati bilan tanishish taklif etiladi.

NATO mansabdor shaxslari ham, tegishli davlatlar vakillari bilan uchrashish va ommaviy tadbirlarda qatnashish uchun mintaqaga tashrif buyuradilar. NATOning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqa va hamkorlik bo'yicha xodimi jamoatchilik diplomatiyasida, jumladan fuqarolik jamiyati va OAVni jalb qilish va jamoatchilik tadbirlarida qatnashish orqali, faol rol o'ynaydi.

Hamkorlikning muhim jihatlari

- 1992 Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Shimoliyatlantika hamkorlik Kengashiga qo'shilishi.
- 1994 Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik" (TYH) to'g'risida Umumiy hujjat imzoladilar.
- 2001 Markaziy Osiyolik hamkorlar yevroatlantika Kengashi hamkorlari bilan birgalikda 11 sentyabr teraktlarini qoralaydilar va terrorizmga qarshi kurashishga javobgardirlar. AQSh boshchiligidagi koalitsiya tomonidan Afg'onistonda o'tkazilayotgan opersiyalarni qo'llab-quvvatlash ma'isadida hududlar, bazalar va Markaziy Osiyodagi boshqa ob'ektlar ustidan uchib o'tish huquqini taqdim etadi.
- 2002 Tojikiston "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik"ka qo'shildi.
- Qozog'iston va O'zbekiston TYHning rejalashtirish va tahlil etish Jarayonlarida ishtirok etishni boshladilar.
- 2003 O'zbekistonda "Farg'ona-2003" ofatlarga qarshi chora ko'rish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.
- NATO Afg'anitondagi Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar (ISAF) boshqaruvini o'z qo'liga oladi; barcha markaziy osiyolik hamkorlar missiyani o'tkazishda o'z yordamlarini ko'rsatadilar.
- 2004 Stambulda o'tkazilgan NATO sammitida Markaziy Osiyo va Kavkazga alohida e'tibor qaratilishi bo'yicha qaror qabul qilindi; ushbu ikki hudud bo'yicha Bosh kotibiyatning Maxsus vakili lavozimi, shuningdek, har bir hudud uchun o'zaro munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimi lavozimi tashkil etildi.
- Tojikiston Afg'anistonda operatsiyalar o'tkazish maqsadida NATO bilan tranzit to'g'risida kelishuv imzoladi.
- TYH maqsadli jamg'armasining uncha katta bo'lmagan loyihasi yordamida Tojikiston 1200 dan ortiq minalarni zararsizlantirish ishlarini yakunladi.
- 2006 Qozog'iston ilk bor Hamkorlik harakatining induvidual rejasini ishlab chiqdi.
- Olmatadagi Al-Farobiy nomli Qozog'iston milliy universitetida NATO resurs va axborot markazi hamda Ostonadagi (Qozog'iston) Milliy kutubxonada NATOning Depozitar kutubxonasi ochildi.
- 2007 Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedov NATOning shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- Qirg'iziston TYHning tahlil va rejalashtirish Jarayonlarida ishtirok etishga qaror qildi.

Hamkorlikning muhim jihatlari

- 2009 Bishkek (Qirg'iziston)dagi Diplomatik akademiyada NATOning depozitar kutubxonasi ochildi.
- NATO Qirg'izistonning qurolli kuchlaridan zaxiraga chiqqan xarbiy xizmatchilarni qayta tayyorlash va ijtimoiy moslashuv dasturini boshladi.
- Qozog'istonda (Ostona) yevroatlantik hamkorlik Kengashining (YAHK) xavfsizlik Forumi, shuningdek, "Jetisu-2009" ofatlarga qarshi chora ko'rish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.
- 2010 NATO Qozog'iston va O'zbekiston bilan ISAFning uchmaydigan yuklarini temir yo'l orqali tranziti bo'yicha kelishuvga erishdi.
- O'zbekistonda melanjdan foydalanish bo'yicha Maqsadli jamg'arma loyihasi yakuniga yetdi.
- Qozog'iston Prezidenti Nursultan Nazarbaev NATO shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- 2011 O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov NATO shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- Qirg'iziston Prezidenti Roza Otunbaeva NATO shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- 2012 Markaziy Osiyo hamkor davlatlarning barcha tashqi ishlar vazirlari, shuningdek, O'zbekiston mudofaa vaziri NATOning Chikagodagi Sammitida ishtirok etdi.
- NATO Qirg'iziston bilan ISAFning uchmaydigan yuklarini temir yo'l orqali tranziti bo'yicha kelishuv yakuniga yetdi.
- 2013 Tojikistonda yaroqsiz o'q dorilarni utilizatsiya qilish va chegara hududlardagi qurol aslaha va o'q dorilar saqlanadigan ob'ektlarda inspeksiya o'tkazish maqsadida Maqsadli jamg'armaning yangi loyihasi joriy etila boshlandi.
- Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambaev NATO shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- Tojikiston Prezidenti Emomali Raxmon NATO shtab-kvartirasiga tashrif buyurdi.
- Toshkentda (O'zbekiston) Markaziy Osiyodagi o'zaro munosabat va aloqa bo'yicha NATO xodimi Byurosi ochildi.
- 2014 Toshkentdagi (O'zbekiston) Xalqaro iqtisodiyot va diplomatiya universitetida NATOning depozitar kutubxonasi ochildi.

NATO nashrlari elektron kitob do'konlarida mavjud: www.nato.int/ebookshop

NATOning axborot risolalarida turli yo'nalishdagi siyosat va Shimoliy atlantika ittifoqi faoliyati taqdim etilgan. Ular Bosh kotib boshchiligida chop etiladi va rasmiy fikrlarni yoki alohida a'zo-davlatlar hukumatlarining pozitsiyasini aks ettiradi.

NATOning ijtimoiy diplomatiya boshqarmasi, 1110 Bryussel, Belgiya – www.nato.int – © NATO 2014